

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Egamova Kumush

Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi 5 son mакtabning
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: : ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. *creatio* – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqeа, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi.

Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalari taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalari bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e“tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to,,sqinlik qiladi:

- 1) o,,zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo,,pollikka yo,,l qo,,yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo,,lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o,,ylash.

Boshlang,,ich sinf o,,quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta“sir qiluvchi muhim omillardan biri o,,qituvchi-o,,quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e“tibor qaratildi.

Malumki, ta“lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo,,lib, o,,qituvchi va o,,quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o,,qituvchi ta“lim jarayonining to,,g,,ri tashkil etilishi, ta“lim maqsadlarining to,,g,,ri amalga oshirilishi va ta“lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta“lim jarayoni o,,qituvchining to,,liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto,,g,,ri fikrning tug,,ilishiga asos bo,,la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimmnidir bo,,ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobjiy natijaga erishishdir. Ta“lim jarayonida o,,quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o,,zlashtirishga oid mexanizmgina bo,,lib qolmasdan, balki shaxsning umumiyligi ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim. Bizningcha, o,,quv vaziyati ta“lim jarayonini tashkil qiluvchi o,,zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o,,qituvchi bilan o,,quvchilar hamkorligi;
- o,,quvchilarning o,,zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

Materiallar tahlilining ko,,rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o,,zlashtirish mahsuldor bo,,ladi. Ilmiy manbalarda ta“limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko,,ra hamkorlikdagi mahsuldor o,,quv faoliyatini vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko,,rsatib o,,tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta“limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko,,ra shaxs o,,z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko,,zga tashlanadi.

2. O,,qituvchi-o,,quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog,,liqligi tamoyili.

O’quv jarayonida o’quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O’quvchilarning ta“limga qay darajada ixlos qo,,yishi o,,qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog,,liq. O’qituvchi bilan o,,quvchilarning o,,quv faoliyatidagi muhitning to’g’ri uyushtirilishi o’quvchilarning fanga bo’lgan

qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g„ayratini sarflashga undaydi. Bu o’zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o„quvchi o’zini pedagogik ta“lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi.

O“qitishda muammoli ta“limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O“quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog“liq bo“lgan ta“lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o“quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriyasi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta“lim shu jihatdan bir qancha afzallikkarga ega:

1. U o“quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o“rgatadi.
2. U o“quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e“tiqodga aylanishiga ko“maklashadi.
3. U odatda, ancha ta“sirchan bo“lib, chuqur intellektual his-tuyg“ular, shu jumladan ko“tarinki ruh, hissini o“z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg“usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o“quvchilarni qiziqtiradi, o“quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.
4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o„quvchilarning o„quv jarayoniga munosabati o„qituvchi va o„quvchilar o„zaro ta“sir jarayonining to„g„ri tashkil etilishi, o„quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o„zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o„quv natijalariga qo„yiladigan baho tizimiga bog„liqligini ko„rsatdi. Kreativlik va o„zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog„liq. Zero, faqatgina yangicha yondashuv asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o„z ifodasini topadi. Pedagogik kreativlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o„tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak

Boshlang“ich ta“lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta“lim turidan biri bo“lib, ta“limning bu bosqichida pedagog o“qituvchilarga katta mas“uliyat yuklatiladi. Ya“ni boshlang“ich sinf o“quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o“rganishni talab etmoqda.

O“quvchilar o“z-o;zidan kreativ bo“lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyatini ma“lum vaqt ichida izchil o“qib-o“rganish, o“z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

O“qituvchilar o“quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o“quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o“quvchilarni o“zgacha yondashuvli ya“ni kreativ bo“lishlariga erishishi mumkin.O“qituvchi o“quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o“quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy

sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o"quvchilarni o"z ustida ishslash, mustaqil o"qib o"rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog"liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug"atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O"nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o"ziga va na unga taalluqli bo"lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to"xtam mavjud emas.

Ma"lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1) avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo"lishi. O"qituvchi o"quvchilarga erkinlikni, albatta, me"yorida ta"minlab berishi lozim;

2) boshlang"ich ta"limning o"ziga xos xususiyatlaridan biri bu -bolalarning maktabga tayyorgarlik darjasini, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko"ra boshlang"ich ta"lim o"quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o"quvchilarda bilim, ko"nikma va malakalarni shakllantirishga e"tibor berilgan bo"lsa-da, ammo o"quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya"ni o"qituvchilar ma"suliyatli va e"tiborli bo"lish zarur.

Shuningdek, o"quvchilarning kreativ qobiliyatları rag"batlantirilsa va samimiyligi yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Hato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho"chish, haddan tashqari baholarga e"tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo"rqish hissi mavjud o"quvhilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O,,zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O,,zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – T.: "O,,zbekiston", 2016 yil, 56 bet.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo"yicha o"quv-uslubiy qo'llanma. :– Toshkent 2015, 40 bet
4. Davletshin M.G., Do,,stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To,,ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O,,quv metodik qo,,llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
5. Innovatsion ta"lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo"yicha o"quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016
6. Jo"rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta"limg aasoslangan o"quv-metodik qo"llanma. –T.: Fan, 2005, 66 b